

## О'ZBEK TILI IMLOSINI O'RGATISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

*Urazbayev Muratbay Amanbayevich –*

*Nukus davlat pedagogika institute, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4- bosqich talabasi*

*Yuldasheva Shahlo Shukrullayevna – p.f.n, professor*

**Kalit so'zlar:** kommunikatsiya, kompetensiyaning shakllanishi, lingvometodik, videodars, interfaol mashqlar.

**Annotatsiya:** O'zbek tili imlosini o'rgatish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi haqida to'xtalib o'tildi.

Dunyoga yuz tutib borayotgan mustaqil davlatimizga hozirgi kunda o'z haq - huquqini anglaydigan, fikrini isbotlay oladigan, gapga chechan, so'zini o'tkaza oladigan mutaxassislar kerak. Bunday mutaxassislarni esa maktab tayyorlab beradi.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini, hayotning takomillashuvini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan bir yo'li yosh avlodning o'qishi va bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni ma'naviy jihatdan o'stiradi, axloqiy barkamollikka yetishtiradi. Shuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'limi tizimiga, yoshlar ma'naviyatining muhim bir manbayi sifatida katta e'tibor berilmoqda.

Ona tili ta'limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi va kamoloti uning jamiyatda muloqot qilishi hamda tanqidiy – tahliliy fikrlashi bilan baholanadi.

Hozirgi vaqtda mana shu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Zeroki, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalari hamda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rnini va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko'ndalang bo'lib turgan bir paytda bu fanning o'qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan tashqari tayanch kompetensiyalarni ham qaror toptirish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda qabul qilinib amaliyotga joriy qilinayotgan eng so‘nggi qaror va ta‘lim tarbiyaga doir qonun va qonunosti hujjatlarda, yosh avlodni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash hamda shu orqali jamiyatimiz rivoji uchun xizmat qiluvchi faol va haqiqiy vatanparvar bo‘lib yetishishi maqsadi ko‘zlanayotgani hech kimga sir emas.

Jumladan, 2017 - yil aprel oyida qabul qilingan „Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartida avvalgi davlat ta‘lim standartlarida uchramagan atama - „kompetensiya“ kiritildi.

Kompetensiya – “mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati” deganidir.

DTS talabiga ko‘ra o‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - ikki kompetensiyada mujassamlashadi. 1. Nutqiy kompetensiya - tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ya‘ni muloqot malakasini egallash. 2. Lingvistik kompetensiya - til materialini (fonetika, leksika, grammatika) va vositalarini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirish uchun, bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish) egallashni nazarda tutadi.

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko‘nikmalar belgilanadi. Bunda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash, sintaktik - uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi.

Yangi qabul qilingan Davlat ta‘lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ta‘lim jarayonida amalda bo‘lgan „Dars - muqaddas“ shiori ostida umumta‘lim maktablarida o‘quv-tarbiya jarayonining samarali tashkil etishga doir pedagoglar uchun tavsiyalar majmuasiga uch maqsad - ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar bilan birgalikda o‘quvchilar kompetentligini shakllantirish uchun kompetensiyaviy maqsad ham amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda ilm-fan va texnikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borishi ishlab chiqarishning yanada takomillashuvi ta‘lim-tarbiya jarayonining ham mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda. Bu o‘z o‘rnida har bir fan o‘qituvchisi uchun, xususan, o‘zbek tili fani o‘qituvchisi uchun yuksak mas‘uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad etib bo‘lmas bir haqiqat bor - qilingan barcha sa‘y-harakatlar, oxir-oqibat o‘qituvchi mehnati orqali o‘z natijasini namoyon etadi. Insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi bevosita muloqot, nutq madaniyati bilan bog‘liq ekanligi ham hech kimga sir emas.

Bugungi kunning o‘qituvchisi yosh avlodni tarbiyalashda zamon bilan hamnafas ish olib borishi, ta‘lim jarayoniga yangicha pedagogik texnologiyalarni qo‘llab yosh avlodni muloqot madaniyati shakllangan, tanqidiy – tahliliy fikrlovchi ruhda tarbiyalashi kerak bo‘ladi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda biz, mazkur ilmiy ishimizda o‘quvchi yoshlarni muloqot hamda muomala madaniyatini shakllantirishda, ularni o‘z fikrlarini erkin tarzda bayon qilishda „kommunikativ kompetensiya“ ning o‘rni, uning ta‘limdagi ahamiyati xususida ozgina to‘xtalib uning mazmun mohiyati haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida shakllanadigan o‘quvchining shaxsiy sifati;

ikkinchidan, nutqiy muloqot maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, xususiyatlari to'g'risida o'quvchining xabardorligi ko'rsatkichi; tegishli texnologiyani bilish darajasi; mutaxassisning individual psixologik fazilatlarini; aloqa faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intilish; inson shaxsiyatiga yo'naltirish, asosiy qadriyat sifatida, shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nostandart, ijodiy hal qilish qobiliyati. Nutqiy muloqot o'quvchining kommunikativ kompetensiyasining asosiy qismidir, u har doim hamjamiyatni, o'xshashlikni, o'zgalarni anglash va qabul qilishga bo'lgan o'zaro intilishni, nafaqat oqilona o'lchash va javob berish, balki hissiyot bilan hamdard bo'lishni nazarda tutadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda "kompetensiya" tushunchasi nisbatan yaqinda keng tarqaldi. 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida g'arbda va 1980-yillarning oxirlarida mahalliy adabiyotlarda maxsus yo'nalish – ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv paydo bo'ldi. Kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim natijasiga e'tibor beriladi va, natijada, olingan ma'lumot miqdori emas, balki insonning qobiliyati turli xil muammoli vaziyatlarda harakat qilish, shu bilan birga, ta'lim natijalari ta'lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadi.

Zamonaviy pedagogika fani amaliyotida "kompetensiya" va "kompetensiyaviy yondashuv" tushunchalari faqat XX - asrning 90 - yillari oxirida ishlay boshladi. V.I. Dal kompetensiyani to'la huquq sifatida tushunadi va uni, asosan, huquqiy sohada qo'llaydi: "Biror kishini, nimani yoki kimnidir hakamlilik qilishga qodir bo'lgan va huquqiga ega bo'lgan vakolatli sudya ...". D.I. Ushakov turli mualliflarning fikri va ular orasidagi farqlarni isbotlashga harakat qiladi: „kompetensiya – xabardorlik, vakolat; kompetensiya – ma'lum bir shaxs vakolati, bilimlari, tajribasi, texnik topshiriqlariga ega bo'lgan muammolar, hodisalar doirasi“, kompetensiya – bu o'ziga xos shaxsiy xususiyat, vakolat esa o'ziga xos professional yoki funksional to'plamdir“. D. Ivanov bu tushunchalarni biroz boshqacha tarzda bayon etadi. Qobiliyat deganda, inson yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo'lgan qator masalalar tushuniladi. Muayyan sohada mutaxassis bo'lgan odam tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo'lib, unga ushbu sohani oqilona baholash va bu yerda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2017 - yil 6 - apreldagi 187 - sonli qarori. „Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti“ to'g'risida.
2. „Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti“ 2017y, O'zb.Resp. qonun hujjatlari to'plami, 14-son, 280 modda
3. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка [текст]: в 4-х т. Т. 2, / В.И. Даль; под ред. М.И. Бодуэна де Куртене. – М.: Цитадель, 1998. – С. 1024. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped.fan.fal.dok. ... dis. – T., O'MKHTTKMOQTI, 2018. – B. 176.